



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAK NYUTON  
(1643-1727)



2022  
APREL  
№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
2-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-2**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-2**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР**

<b>1. Rasulova Shahnoza</b>	
INSON KONSEPTINING FALSAFIY TAHLILI .....	7



## ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

### INSON KONSEPTINING FALSAFIY TAHLILI

Rasulova Shahnoza  
SamDChTI II-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Inson - falsafaning bosh mavzusi sifatida o`rganilar ekan insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o`rni falsafiy muammolar tizimida muhim o`rin tutadi. Turli falsafiy ta`limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo`lishi tabiiy bo`lib, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda turli xil fikr va qarashlar orqali tahlil qilinib kelgan

**Kalit so`zlar:** Inson konsepti, Inson muammosi, tafakkur, inson tabiat, ijtimoiylik, donolik, ijtimoiy adolat.

Inson muammosini falsafada o`rganilganda faylasuf olimlarimiz tomonidan turli xil fikr va qarashlar bildirilgan. Tarixan bizga ma`lumki inson ishbilarmonlikdan, uquvli, tafakkurli darajaga o`tgan, bu yuksalish shakliga insonning ijtimoiy munosabatga o`tishi sabab bo`ladi. Ijtimoiylik inson hayoti substantsiyasi, negizini tashkil etishini tushunish imkonini berdi. “Inson haqidagi fikrlar inson tabiatini va mohiyatini farqlash zarur, degan xulosaga olib kelgan. Bu yerda aniq chegara bo`lishi mumkin emas, chunki inson doim olam jumbog’i, uning ochilmagan siri bo`lib kelmoqda. Lekin, shunga qaramay, fanda inson qobiliyati va sifatlari majmuuni uning tabiatini bilan bog’lab o`rganish qabul qilingan. Aqillilik, muomala qilish va ijtimoiy hayot kechirish qibiliyati insonning asosiy xususiyatlari hisoblanadi”<sup>1</sup>.

Antropogenez doirasida insonning biologik tabiatini bilan ijtimoiyligi nisbatini aniqlab olish muhim ob`ektiv jihatdir. Umuman olganda bu muammoni o`rganish insonning eng qadimgi tarixidan boshlab, to hozirga qadar bo`lgan davrni qamrab oladi. Shuningdek, insonning ayni bir vaqtning o`zida ham jonli tabiatga, ham jamiyatga mansubligi har doim ko`pgina masalalarini keltirib chiqarishi bilan birga to`g’ridan to`g’ri, prinsipial jihatidan dunyoqarash masalalarini yuzaga chiqaradi. Bu masalani Arastuning, inson “siyosiy hayvondir”, degan fikr ifodasidan ham anglashimiz mumkin bo`ladi. Darhaqiqat, Homo sapiens turi biologik jihatdan Homo urug’ining Homo hofilis (qobiliyatli odam), Homo erectus (tikka yuruvchi odam) kabi turlaridan farq qilmay, balki bir xil sezish organlari, bir xil qon aylanishi, muskil, nafas olish, suyak tizimlari va hakozolarga ega bo`lgan biologik tur hisoblanadi.

Antik davrdan boshlab o`rganilib kelayotgan insonga bo`lgan qiziqish “Inson”, degan savolga bugungi kunda ham avvalgidek murakkab qarash va fikrlar yig’indisini mujassamlashtirmoqda. Inson mohiyatan, chuqur anglangan, ma’nan ruhiy to`yingan mavjudotdir. Demak, inson o`zini yashab turgan dunyodan oldinroq va ko’proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o`zidan keyin va o`zi orqali anglab yetadi. Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa - nisbiy borliq namoyon bo`ladi.

Shuningdek, inson falsafasining mazmuni davr qo’yan masalalarga javob berish bilan taqqoslaganda hozirgi vaqtida ilmiy bilimlar va dolzarb hayotiy muammolarni hal etish uchun zarur bulgan ilmiy texnikaviy va madaniy vositalar yetishmayotganligini emas, balki bu vositalardan donolik bilan foydalanishmayotganligi kuzatilmoqda. Bu donolik markazida mohiyatan qadriyatlar mezoni hisoblangan tinchlik, donolik, ijtimoiy adolat va boshqalar shu o`rindan joy oladi.

Insoniyat tarixida inson kontseptiga murojaat etmagan, inson moddiy va ma’naviy borlig’ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo’nalish bo’lmasa

1 Шермуҳаммадова Н. Фалсафага кириш. 2012, Б.201



kerak. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o’laroq, insonga mikrokosm yoki kichik koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblab kelingan fikrlar bayon qilingan. Xususan, faylasuf olimlar inson muammosining tagiga yetish borliq jumbog’ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini ta’kidlab, o’z g’oya va qarashlarini ilgari surib o’tganlar.

Shunday yetakchi g’oyalarini ilgari surgan Forobiy –agar inson har qanday hayvondan biror narsada ustun bulsa, u narsa va xatti-harakatlarning farqini ajratishga yordam beruvchi bir kuch bo’ladi va inson o’sha kuch yordamida narsalar hamda xatti-harakatlardan o’z hohishi bo’yicha foydalanadi. Inson ularning qaysi biri foydali, qaysi biri zararli ekanligi o’ziga ravshan bo’limguncha kuzatadi va foydaligini tanlab olib o’zlashtiradi, zararligini rad etib, ulardan o’zini olib qochadi. Kuchlarning harakatga aylanishi tajriba yordamida ro’yobga chiqadi. Tajribaning mohiyati ayrim turlar to’g’risida fikrlash va o’sha ayrim narsalar bilan mos keladigan umumiyatlar haqida mulohaza qilishdan iboratdir<sup>1</sup>.

Hozirgi inson falsafasi bu muammo tahlilida o’z ichiga ko’plab qarashlarni qamrab oladi. Ularning barchasida asosan inson mohiyati, mazmuni va nihoyasi mushohada qilingan. Bu tahlillarga ko’ra, inson mohiyati masalasi hozirgi sivilizasiya qadriyatlar talablariga mos bo’lmay olamdagи doimiy o’zgarishlar jarayonida mazmunan ahamiyatini yo’qotib boradi. Ammo har bir davrning tajribasi vorisiylik asosida tajriba tarzda almashilinadi. Shuning uchun har bir davr olim-faylasuflari inson muammosi tahlilini batafsil yoritib, bilimlari bilan yondoshgan.

Inson kontsepti har doim mutafakkirlar diqqat markazidan o’rin olib, uning mohiyatini yangi tarixiy sharoitda va yangicha nuqtai nazardan anglab yetishga harakat qilib kelingan. Har bir davrda uning mohiyati qayta va qayta yangidan kashf etilgan. Pirovardida, falsafa fanida insondon murakkabroq va ziddiyatliroq predmet yo’q ekanligi asoslanib borilgan.

Sharqning buyuk allomasi Abu Rayxon Beruniy birinchi bo’lib fan olamida insonning tabiat bilan bog’liqlikni, odam va olam o’rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtai nazaridan o’rganib tahlil qilgan. U “odamlar tuzilishining rang, surat, tabita va axloqda turlicha bo’lishi, nasablarining ham turli xil bo’libgina qolmay, balki tuproq, suv, havo va yerning, odam yashaydigan joylarning turlicha bo’lishini izohlاب bergen. Shuningdek, tillarning turlicha bo’lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun zarur bo’lgan so’zlarga ehtiyoj tug’ilishidadir. Uzoq zamонлар o’tishi bilan bu iboralar ko’payib, yodda saqlanib, takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan”<sup>2</sup>, deb hisoblaydi.

Beruniyning yana bir qarashlarida, insonning fe'l-atvori va ma’naviy qarashlari surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta’sirida shakllanib, aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo’la olishini ta’kidlagan. “Inson o’z tabiatiga ko’ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo’lib, bu qismlar tobelik kuchi asosida birlashgan, hamma odamlarda o’zaro bir-biriga o’xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud”<sup>3</sup>.

Inson kontsepti, uni o’rganish mohiyati haqida fikr va qarashlar cheksiz bo’lib, alohida, rang-barang yondoshuvlar mavjudligi borligi bilan ahamiyatlidir. Bu qarashlar ichida Ibn Sino va Farobiq qarashlari ham inson mohiyatini yoritishda yetakchilik qilgan g’oyalardir. Ibn Sino, “Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so’zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o’rganish yordamida boyib boradi”<sup>4</sup> deb ta’riflaydi.

Forobiyning qarashlarida, inson o’z tabiatiga ko’ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo’ladi. Yakka holda hech kim buning uddasidan chiqa olmaydi deb, insonning jamiyat bilan uzviy bog’liq holda faoliyat yuritib rivoj topishini qayd etib o’tgan. “Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o’z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma’naviy darajaga ko’tarilishi mumkin”. Inson o’z hayotining me’mori, ijodkor bo’lmog’i, o’zida fozila xislatlar, iste’doddarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko’rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudod. Yolg’izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi,

1 Фозил одамлар шаҳри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусодик Ирисов, Маркам Махмудов, Урфон Отажон. Масъул мұхаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2016, 18-бет

2 Беруний А. Таңланган асарлар. 1 жилд. -Т.: Фан, 1968.-Б.16-17.

3 Ирисов А. Абу Райхон Беруний ҳикматлари. -Т.: Ёш гвардия, 1973. —Б.40-43

4 Ибн Сина. Данишшамэ. -Душанбе.: 1957.-С.59



insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste'dodini yo'qotadi<sup>1</sup>. Ibn Xaldunning qarashlarida esa inson ijtimoiy voqelik deb qaralib, undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Shunga ko'ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko'ra ezgulikka, yomonlikdan ko'ra yaxshilikka, nafratdan ko'ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho ne'matdir<sup>2</sup> deb baholaydi.

Inson muammozi mohiyati ko'plab olimlar tomonidan turli qarashlar bilan o'rganilgan. Xususan, g'arb olimlarini qarashlari misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak, masalan M.Sheler inson mohiyati va uning alohida ahamiyatga ega bo'lган jihatini aql va tanlash imkoniyati bilan cheksiz erkinlikka erishgan<sup>3</sup> deya qayd o'tidi.

Insonga mexanistik nuqtai nazardan yondashgan frantsuz olimi J.Lametri o'zining “Inson-mashina” deb nomlangan asarida barcha ijtimoiy munosabatlar majmui insondir<sup>4</sup> degan g'oyasini ilgari surgan. Yana bir frantsuz faylasufi R.Dekart asarlarida esa inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o'zgacha yondashuv kuzatiladi. U insonni “fikrlash qobiliyatiga ega narsadir”, deb ta'riflaydi.

Atoqli frantsuz faylasufi va teologi P.T. de Sharden “Inson, u uzoq vaqt o'ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolyusiyaning o'ziga va cho'qqisi bo'lib, bu ancha go'zalroqdir”<sup>5</sup>, deb qayd etadi.

Unga zid fikr o'laroq, A.Shopengauer inson nuqsonli mavjudot ekanligini ta'kidlaydi, uni “tabiat xalturasi”<sup>6</sup> deb ataydi. Fransuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va shu tariqa o'zini o'zi yaratadi. U “Inson-odamzot kelajagidir”<sup>7</sup>, deb ta'kidlaydi.

Insonga berilgan fikrlarning bunday rang-barangligi eng avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash imkoniyatiga ega ekanlidir. Inson tabiatining siri, hech shubhasiz, “boqiy muammolar” dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va shunday bo'lib qoladi. Yuqoridagi berilgan ta'riflar, barcha sohadagi mutaxassislarning fikr-mulohazalari insonning kelib chiqishi haqidagi masalaga oydinlik kiritganligi bilan muhim ahamiyat egadir. Inson qaerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'p sonli g'oyalar o'rganilgan sari inson mohiyatini real tarzda o'rganishni rivojlantiradi. Xullas, odamzodning ona zamindagi hayoti, inson umri, uning ma'nosini mazmuni shaxs kamoloti bilan bog'liq masalalar tavsifi va ularga nisbatan yondashuvlar xilma-xilligi davom etmokda. Shuningdek, insonning imkoniyatlari, qobiliyatlarini va qator sifatlari to'g'risida yangi qarashlar paydo bo'imoda. Lekin bir narsa aniqqi, haligacha xech kim bu masalalarda nima asl haqiqat, nima ikkilamchi yondoshuv ekanligi to'g'risida bir to'xtamga kelgan emas. Shu narsa aniqki odamzod mavjud ekan, uning uchun o'zi va boshka odamlar, ularning hayoti, faoliyati, insonlar orasidagi munosabatlar, aloqalar, shaxsnинг olamdagи va jamiyatdagи o'rnini bilan bog'liq masalalar mavjud va dolzarb bo'lib qolaveradi va o'rganishda davom etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беруний А. Танланган асарлар. 1 жилд. -Т.: Фан, 1968
2. Ибн Сина. Данишшамэ. -Душанбе: 1957
3. Ирисов А. Абу Райхон Беруний ҳикматлари. -Т.: Ёш гвардия, 1973
4. Корнеев П.В. Философская антропология Макса Шелера и экзистенциализм.
5. Ламетри Ж. Человек-машина. Издательство “Мысл” 1983
6. Фозил одамлар шахри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусолик Ирисов, Маркам Махмудов, Урфон Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: 7. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров.

1 Форобий. Фозил одамлар шахри. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. —Б.69

2 Ibn Xaldun. Al-Muqaddima. Al-Qohira: Dor al-kitab Al-Misriy va al-Lubnaniy, 1999 m.

3 Корнеев П.В. Философская антропология Макса Шелера и экзистенциализм. — М., 1971.

4 Ламетри Ж. Человек-машина. Издательство “Мысл” 1983

5 П.Т.де Шарден. Переводчик: Вайнер О., Садовский Н.А. Издательство: ACT, 2011

6 Шопенгауэр А. Переводчик: Айхневальда Ю. Мир как воля и представление. Издательство: ACT, 2020

7 Сартр Ж.П. Издательство: Вагрус, 2006



- Тошкент: Янги аср авлоди, 2016  
7. Сартр Ж.П. Издательство: Вагрус, 2006  
8. Шарденъ. де П.Т. Переводчик: Вайнер О., Садовский Н.А. Издательство: АСТ, 2011  
9. Шермухаммедова Н. Фалсафага кириш. 2012  
Шопенгауэр А. Переводчик: Айхневальда Ю. Мир как воля и представление. 10.  
Издательство: АСТ, 2020  
11. Ibn Xaldun. Al-Muqaddima. Al-Qohira: Dor al-kitab Al-Misriy va al-Lubnaniy, 1999 м.

---

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 2-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзисв

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000